

**QO‘QONNING SO‘NGGI XONI — XUDOYORXON  
QO‘QON XONLIGI SHOIRLARI IJODIDA**

*Avg‘onova Gulnoza O‘ktam qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davat universiteti Filologiya fakulteti*

*Adabiyotshunoslik (o‘zbek) yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

*Tel. +99891 534 57 99*

*e-mail: [gulnozaavgonova99@gmail.com](mailto:gulnozaavgonova99@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

Maqolada Furqat, Zavqiy, Zoriyning Xudoyorxon tarixiga bag‘ishlab yozgan asarlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Furqat tarafidan yozilgan “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” nomli muxammasida xonning taxtdan tushishi va undan keyingi xor-zorlikda kechirgan hayotiga achinish hissi bilan qaraganligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Havoiy - Umidiyning “Maktubchai xon” manzumasida ham so‘nggi xonning qiyinchiliklari haqida yoritilganligi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** manzuma, muxammas, Furqat, shoirlar, masnaviy, Zahhoki soniy, maktub

### **Annotation**

This article analyses about the life of Xudayar khan and a brief information of him in Furkat, Zavqiy, Zoriy’s works.”Muhammas Muhammad Xudoyorxon tilidan”, written by Furkat, it was given the abdication the throne as a khan of Kokand khanate, then later years who spent in poverty , mentioned in this muxammas.Havoiy-Umidiy mentioned , wrote in his manzuma , named “Maktubchayi xon” , storied to explain khan’s last years how to spend in difficulty situation.

**Key words:** “manzuma”, “muxammas”, Furkat, poets, “masnaviy”, “Zahhoki Soniy”, “maktub”.

XIX asrda o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishgan, gullab-yashnagan adabiy muhiti bilan mashhur bo‘lgan Qo‘qon xonligida madaniyat yuksak darajada o‘sdi. Ayniqsa, buni o‘sha davrda yashab ijod etgan shoirlarning fors-tojik va o‘zbek tilida yaratilgan asarlari orqali ko‘rish mumkin. Bu davrda ijod etgan shoirlarning 300 dan ortiqligi ham davrning nechog‘lik adabiyashganini va muhitning o‘zgarganligini anglatadi.

Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan asarlarning orasida xonlikning hukmdorlariga bag‘ishlangan asarlar talaygina [2; 9]. Xususan, Qo‘qonning dastlabki xoni Olimxon davridan toki Qo‘qonning so‘nggi xoni Xudoyorxon davriga qadar ularga atab yozilgan asarlarning soni anchani tashkil etadi.

Qo‘qon adabiy muhitida ham boshqa adabiy muhitlardagi kabi an’anaga ko‘ra she’riyat rivoj topdi. Ayni paytda undagi mazmun va shaklni yangilash harakatlari ham ilk bor shu yerda ko‘zga tashlandi. Muhit ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlarda tarixiy ma’lumotlarning nechog‘lik rost ekanligi hamda ahamiyati ushbu muhitning mohiyatini belgilab beradi. Tarixni aks ettiruvchi badiiy asarlar mavzu ko‘lami va janr xususiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tarixiy-badiiy asarlar.
2. Adabiy nasr namunalari.
3. Mumtoz lirik turdag'i she'rlar.

XIX asr davomida Qo‘qon xonligidagi ayrim ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixini badiiy tarzda ifodalagan bir necha dostonlar yaratilgan edi. Misol sifatida Abdulkarim Fazliyning “Umarnoma”, Uvaysiyning “Voqeoti Muhammadalixon”, Mutribning “Shohnomai Devona Mutrib”, Abdug‘afur Ismatiyning “Zafarnomai Xudoyorxon”, Havoiy-Umidiyning “Maktubchai xon” manzumasini keltirish mumkin. Mazkur dostonlar masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, ularning hajmi turlichadir. Ko‘rinib turibdiki, ushbu badiiy manbalar o‘sha davr tuzumidan, ahvoldidan bizni xabardor qiladi.

Adabiy yetuklikka erisha boshlagan muhit Qo‘qon xonligining so‘nggi yillarida taxtda o‘tirgan, uch bor taxtdan quvilib, yana uni qayta egallagan Xudoyorxon davrida ancha ayanchli ahvolga tushib qoladi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi ma’lum bo‘lib turgan bir vaqtda xonning davlatni tashlab, boshqa yerga qochib ketishi, natijada o‘z qilmishlari, zulmkorligi sababli sarson-sargardonlikda yurib, yurtiga qaytishga ulgurmasdan vafot etishi o‘sha davr shoirlari tomonidan o‘z asarlarida tasvirlangan. Bu davr Qo‘qon adabiy muhitining eng ko‘zga ko‘ringan shoirlari Furqat, Zavqiy, marg‘ilonlik Havoiy-Umidiy, Zoriy va Mulla Siddiq Kotiblar Xudoyorxonga bag‘ishlab bir qancha lirik she’rlar yaratgan. Shu bilan birga bu davrda epik janrlar, xususan, dostonchilik rivojlandi. Qo‘qon adabiy maktabi vakillaridan Havoiy-Umidiy (1835-1905) “Maktubchai xon”, “Jangnoma”, “Badavlatnomma yoki tarixi Xo‘qand” kabi tarixiy asarlarda rus bosqini va uning oqibatlari bilan bog‘liq voqealarini vatan va millat sha’ni, el-yurt manfaati nuqtai nazarida aks ettirdi.

Marg‘ilonlik shoir Havoiy-Umidiy Furqatning eng yaqin do‘stlaridan biri bo‘lib, Xudoyorxon haqida ko‘p va xo‘p asar yozgan ijodkor edi. U “Maktubchai xon” manzumasida Xudoyorxonning taxtdan tushirilishi va vatan judoligi xususida yozishdan tashqari, Sheralixon, Shomurodxon singari xonlar borasida ham jiddiy mulohaza va talqinlar mavjud. Lekin shoirning asosiy e’tibori Xudoyorxonga, ayniqsa, xonning vatan judolik iztiroblari bilan bog‘liq voqealar va shaxslarga qaratiladi.

Mumtoz adabiyotimizning boshqa ko‘pgina namoyondalaridan farqli ravishda Havoiy-Umidiy Xudoyorxon haqidagi bu yirik masnaviysining yozilish davri haqida aniq-tiniq ma’lumot qoldirgan:

Ki bir ming uch yuz ikki erdi hijrat,  
Yozildi sarguzashti xoni sur’at.  
Jumadul avval oyi avvalida  
Yozib qo‘ydim kitobat matla’ida.  
Yigirma ikkisida bo‘ldi itmom,  
Umidiyga bo‘lub tangridin ilhom [1; 48].

Demak, asarning yozilishi 1885-yilning 5-fevralida boshlanib, 26-fevralida tugallangan. Asar xonning eng murakkab davrlarini qamrab olgan, besh qismdan iborat, o‘zi aytganidek, Tangridan madad so‘rab, uch haftaga yetar-yetmas tugatgan. Ushbu manzumada boshqa manbalarda uchramaydigan tafsilotlar berilgan bo‘lib, boshqa manbalardagi tafsilotlardan farq ham qiladi. Xudoyorxonning Orenburgdan haj safariga chiqish niyatida qochib, Afg‘onistonga borgach, yuz bergan muammoli vaziyatlar xususida shunday deyiladi:

O‘zin naqdidin ellik ming so‘m olib,  
Mini bot uzra ochti yo‘lg‘a solib.  
Yurudi Ka’ba sari- niyati haj,  
Yururg‘a bosh ila poy o‘ldi baravj.  
Bu sur’at birla Afg‘on yurta kirdi,  
Hama zodirahin o‘g‘rig‘ aberdi.  
Qo‘lida rahi soatdin o‘zga,  
Yo‘q erdi hasrati rohatdin o‘zga.  
Garovga qo‘ydi soatlarin shahzod,  
Buzuldi ko‘ngli shahliqni qilib yod [1; 48]

Xon haj safari bahonasi bilan qochgach, yuqoridagi misralarda ta’kidlanganidek, bir qancha qiyinchiliklarni ko‘radi. Bor-budini o‘g‘riga berib, shoh bo‘lgan vaqtlarini yod etib, afsuslarda yuradi.

Havoiy-Umidiy o‘z asarlarida o‘ta bo‘rttirib tasvirlagan timsollardan biri Po‘latxondir. 80-90-yillarda Farg‘ona aholisi orasida ko‘plab falokatlar keltirgan Po‘latxon haqida bir qancha materiallar saqlanib qolgan. Shulardan biri “Turkiston viloyatining gazeti”da 1893-yilda bir necha bor chop etilgan “Janobi Sayid Xudoyorxonning farzandi arjumandlari Ibn Yaminbekning o‘z umri xususida tahrir aylagani ushbudur” sarlavhasi ostida e’lon qilingan avtobiografik yirik asaridir.

Unda keltirilishicha, Xudoyorxon ko‘p pul va asil toshlarni olib, mamlakatdan chiqib ketadi. Uning o‘rniga taxtga katta o‘g‘li Nasriddinbek o‘tiradi. Ammo qipchoqlardan Po‘lat degan kishini xon deb tayinlashadi va u ko‘plab zulmlar qiladi. Xudoyorxonning ukasini, uning o‘g‘illarini tutturib, o‘ldirtiradi. Hatto uch va to‘rt yashar o‘g‘illarini ham qilichdan o‘tkazdiradi. Ibn Yaminbekning amakisi Sayid Murodbekning yetti o‘g‘lini ham ushlab, o‘ldiradi. Uning beshikda yotgan sakkizinch o‘g‘lini ham vahshiyarcha nobud qiladi.

“Maktubchai xon” manzumasida “Zahhoki soniy” nomi ila keltirilgan Po‘latxon haqida ham ma’lumot berilgan. Ayovsiz qirg‘inning badiiy tasviri quyidagicha bitilgan:

Po‘lot qotil- laqab Zahhoki soniy,  
Yetib avlodi xonga ko‘b ziyoni.  
So‘yub xonzoda-yu bekzodalarni,  
Go‘daklik bog‘ida ozodalarni.  
Ona qo‘ynidan olib ikki nafar,  
Alarni qo‘ydi bo‘yni uzra xanjar.  
Yana xonzoda Nasriddin begimni,  
Sayid Fathiddin nom ul yetimni,  
Tofibon kesdi xanjar birla boshin,  
Onosini oqizib ko‘zda yoshin [1; 51].

Qasos haq ekanligi rost, oradan ko‘p o‘tmay, Po‘latxonning o‘zi ham dorga osib o‘ldiriladi.

Xudoyorxonga bag‘ishlab yozilgan she’rlardan yana biri “ayrildim” radifida bitilgan Zoriyning muxammasidir. Muxammasda xonning taxtda o‘tirgan chog‘lari qilgan nojo‘ya ishlaridan nafrat, afsuslanish ma’nolari Xudoyorxonning o‘z tilidan aytiladi:

O‘zumni qilmishimdin yurtqa tushti sho‘r ila sharrlar,  
yoki:

Anga mag‘rur bo‘lubon(man) unutmishman Xudoyimni  
misralari orqali xonning afsus chekishi yaqqol tasvirlangan.

Xonning o‘z qilmishidan qon yig‘lashi quyidagi misralarda keltirilgan:

Umr o‘tti, Xudoyo, qilg‘onim hoyi-havas bo‘ldum,  
Hamiyat yo‘qidin o‘rus elig‘a bir magas bo‘ldum,  
O‘rusni domig‘a tushdim, giriftori qafas bo‘ldum.

Xon haqida ijod qilganlardan biri Zavqiy bo‘lib, u “Demishxon” nomli muxammas yaratgan. Ushbu muxammas yetti band, ya’ni o‘ttiz besh misradan iboratdir. Muxammas bilan tanishar ekansiz, unda xonning barcha og‘a-inilari va farzandlaridan ayrilganligi, gunohsiz insonlarning qiyognog‘I evaziga “mukofotlanganligi”, bid’at ishlardan tiyilmaganligi uchun jazo olganligi, ruslarga bo‘lgan ishonchining yo‘qolishi, xushomadgo‘ylarning gaplariga kirib, yaxshiliklardan ayrilganligi, yegan oshining zahar bo‘lganligi, hijolatdan yurak-bag‘ri qonga to‘lganligi, o‘zidek hech kim xon bo‘lmasligi xonning tilidan aytilgan. Buni yanada yaqqol isbotlash uchun muxammasdan bir parcha keltiramiz:

Xarob bo‘ldim bu yerda, bilmadim obodliq qadrin,  
Kishiga qul bo‘lub bildum bugun ozodliq qadrin,  
Ko‘rub mehnat-mashaqqatlar, bilib manshodliq qadrin,

Shikorimdin qolib fahm ayladim sayyodliq qadrin,  
Qo‘lumdin ketti davlat- oh uyi saydimdin ayrildim [1; 40]

Xudoyorxonning vafotidan so‘ng yozilgan muxammaslar orasida Zavqiyning ushbu muxammasi ikki taraflama ajralib turadi. Birinchidan, unda xon salbiy planda gavdalantirilgan. Boshqa ijodkorlarda bu jihat tasvirlanmagan. Negaki xonning o‘zi afsuslanganligi uchun unga hamdardlik bildirishadi, ammo Zavqiy “qilmish qidirmish” deya, qat’iy xulosaga keladi. Ikkinci tarafi esa general-gubernator fon Kaufmanning Xudoyorxonga nisbatan hiylagarlik va zolimlik qilganini oshkora aytishdir. Bu davrda bunday masalalarni ochiqcha aytishning iloji yo‘q edi, hatto Furqat, Kotiblar ham bunday yo‘ldan bormaydilar. Zavqiy esa matbuotda e’lon qilishni ko‘zda tutmaganligi uchun shunday yozgan. Uning muxammasi va boshqalarning asarlarini birlashtirib turadigan jihatlari ham mavjud edi. Masalan, xonning yurtidan boshqa joyda xor-zor bo‘lib, achchiq nadomatda yurishi tasvirlangan misralar buni ko‘rsatadi.

Xudoyorxonning taxtdan ketgan yillarida 15-16 yoshlarda bo‘lgan Furqat o‘z asarlarida ko‘rgan, esda qolganlarini bayon etadi. Uning 1893-yilda “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” deb nomlangan asari chop etiladi. So‘ngra 1914-yilda A. Avloniyning “Adabiyot” to‘plamida, 1971-yilda “Mehnat va turmush” oynomasida Sobirjon Ibrohimov tomonidan nashrga tayyorlanadi. Asarga so‘z boshi sifatida quyidagi fikrlar yozilgan: “Farg‘ona qalamravining farmonravosi Sayid Muhammad Xudoyorxon marhumekim, nechand yil sekkai davlataning shohliq nobinda erdi va go‘sni saltanati jahonpanoliq bomida banogoh hazrati ahkom al-ah-komayn farmoni birla davlat humosi aning boshidin soya ko‘tarib, raxti zavtiyasi din chiqib, mehnat bodiyasig‘a tushgan xususida g‘urbat vayronasida o‘zini g‘arib ko‘rub, charxi kajraftorni bedodidin shikoyat qilib, asosi davlat va xidomi hashamatlarini yod aylab, bir muncha hasratangez va nadomatomezlik birda degan so‘zlarini istimo’ qilg‘on kishilar tahriri din musavvada aylab, ul marhumning o‘z tilidan kamina Zokirjon Furqat muxammas shaklida ado qildim. Chunkim daqiqbinlar ko‘ziga suxanra’no sinazm libosi birla zebo ko‘runur bo‘lg‘ay”[1; 58]

Furqatning ushbu muxammasi boshqa muxammaslardan xonning o‘z tilidan aytilgani bilan farqlanadi. Furqat bo‘layotgan barcha ishlarga xonning maishatga berilib ketganligini sabab qilib ko‘rsatadi. Xonning tavba qilishi barcha xatoliklar o‘zidan ekanligini anglashini bildiradi:

Qabul aylab xudo butavba birla oh-zorimni,  
Yana Farg‘onaga bir yo‘ yeturgaymu guzorimni,  
Quvonsa notavon ko‘nglim ko‘rub yor-u diyormi,  
Duogo‘ylari chinda yaxshi bilgan e’tiborimni,  
Darig‘o, Furqatiydek diydagiryonlar qayon qoldi?

Furqat Xudoyorxon haqidagi mavzuni yanada kengaytirib yozgan boshqa asarlari ham mavjud bo‘lgan. “Turkiston viloyatining gazeti”da 1891-yilda e’lon qilingan

“Xo‘qandlik shoir Zokirjon o‘g‘li Furqatning ahvoloti” nomli mashhur nasriy asarida bu mavzuni chuqurroq yoritib bergan. Unda yozilishicha, Xudoyorxon hukmdor bo‘lgan vaqtarda Furqat madrasa ta’limini olayotgan bo‘lgan. Xonning o‘zi madrasalarni nazoratga olgan, madrasada ta’lim oluvchilar haftada to‘rt kun : shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari ta’lim olishgan. Qolgan kunlari esa takror o‘qiydilar. Shu taxlit olti oy ta’lim olingach, ta’til berilgan va mezon (sentabr) oyidan yana ta’lim olish boshlangan. Ta’til vaqtida boshqa hunarlarni o‘rganishga vaqt ajratilgan. Xudoyorxon taxtdan ketgach, barcha sarosimada qolib, tarqalib ketgan, talabalar hunar o‘rganish uchun harakat qilishga tushishgan. Saroyda nizolar boshlanib, hayot g‘ala-g‘ovur bo‘la boshlagan. Biroz muddatdan keyin xonlikning boshqaruvi Rossiya davlatiga o‘tgan.[3;50]

Bundan ko‘rinadiki, Xudoyorxon ta’lim tizimini tushungan, savodsiz inson bo‘lmagan.

Qo‘qon xonligi so‘nggi davri va Xudoyorxon haqidagi deyarli barcha asarlarida Furqatning bu xonga nisbatan e’timodi, uning fojiali qismatidan qattiq iztirob chekkanligi bilinib turadi. “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” nomli muxammasida o‘zining xonning duogo‘yi bo‘lganligini ta’kidlaydi. Furqat xalq hayotiga, el-yurt qismatiga, u bilan aloqador har bir voqeaga sinchkovlik bilan nazar tashlagan, tarixiy shaxslarga zo‘r qiziqish bilan qaragan va ular haqida asarlar yaratgan.

Xudoyorxon haqida yozilgan asarlar uning xarakterini, dunyoqarashini ochishimizga yordam beradi. U bilan bir davrda yashagan va xonga bag‘ishlab asar yaratgan barcha ijodkorlar uning ma’lum bitta qirrasidan bizni xabardor qila oladi.

Xudoyorxonga bag‘ishlangan asarlarning ko‘pchiligi o‘rganilmagan va ba’zilari topilmagan ham. Keyingi tadqiqotlar orqali xon haqida yana ko‘plab ma’lumotlar ochib beriladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Юсупов III. Худоёрхон ва Фурқат. Тошкент —1995, 94 б.
2. Қаюмов А. Кўқон адабий мухити. Тошкент—2010, 278 б.
3. Qobilova Z. Va boshqalar. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi. —Toshkent: Tamaddun-2022.
4. Ziyo.uz
5. Kun.uz
6. <http://kh-davron.uz>
7. <http://huqandadab.uz/>